

SUD HOKIMYATI MUSTAQILLIGINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Toshkent davlat agrar universiteti
Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar fakulteti,
Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich 24-171-guruh talabasi
O'mirzaqov Dilshod Olimjon og'li

Ilmiy rahbar: Umurzakova Nargisa Muxtarovna
dotsent, falsafa fanlari nomzodi

Email: umirzaqovdilshod08@gmail.com.

Tel raqam: +998 88-295-05-80

Annotatsiya: Ushbu maqola sud hokimyati mustaqilligining nazariy-huquqiy asoslarini va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu fundamental prinspling mustahkamlanishini har tomonlama tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda hokimyatlar bo'linishi konsepsiyasida sud hokimyatining o'rni, uning xalqaro huquqiy standartlari va milliy qonunchilikdagi aks etishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan institutsional (Sudyalar oliy kengashi faoliyati, sudyalar daxlsizligi) va huquqiy kafolatlar mexanizmlarini chuqur o'rganilgan. Tadqiqot doirasida mavjud muammolar yoritilib, sud tizimi mustaqilligini yanada oshirish bo'yicha amaliy takliflar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, demokratik davlat, odil sudlov, yurisdiksiya sudlari, insonning huquq va erkinliklari, sud hokimyati, huquqiy madaniyat va huquqiy ong.

Аннотация: Настоящая статья посвящена всестороннему анализу теоретико-правовых основ независимости судебной власти и закреплению этого фундаментального принципа в Конституции Республики Узбекистан. В ней рассматривается роль судебной власти в концепции разделения властей, ее отражение в международных правовых

стандартах и национальном законодательстве. Также глубоко изучены институциональные (деятельность Высшего судейского совета, неприкосновенность судей) и правовые механизмы обеспечения подлинной независимости судей. В рамках исследования освещены существующие проблемы и выработаны практические предложения и научные рекомендации по дальнейшему укреплению независимости судебной системы.

Ключевые слова: гражданское общество, демократическое государство, правосудие, суды юрисдикции, права и свободы человека, судебная власть, правовая культура и правосознание.

В ответах искусственного интеллекта могут быть ошибки. Если вам требуется юридическая консультация, обратитесь к специалисту.

Annotation: This article is dedicated to a comprehensive analysis of the theoretical and legal foundations of the independence of the judiciary and the consolidation of this fundamental principle in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It examines the role of judicial power within the concept of the separation of powers, its reflection in international legal standards, and national legislation. Furthermore, institutional mechanisms (the activities of the Supreme Judicial Council, immunity of judges) and legal safeguards aimed at ensuring the genuine independence of judges are thoroughly studied. Within the scope of the research, existing problems are highlighted, and practical proposals and scholarly recommendations for further strengthening the independence of the judicial system are developed.

Key words: civil society, democratic state, justice, courts of jurisdiction, human rights and freedoms, judiciary, legal culture and legal consciousness.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyatimizning rivoji hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari

va erkinliklarini ta'minlashda, jamiyatda qonuniylik va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasida sudyalarning mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo'ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi, sudyalarning muayyan ishlar bo'yicha hisobdor emasligi, sudyalarning daxlsiz ekanligi, davlat sudyaning va uning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlashi kabi muhim normalar mustahkamlab qo'yilgan.

Ta'kidlash joizki, sudyalarning mustaqil va faqat qonunga bo'ysungan holda ish yuritishlarining konstitutsiya darajasida kafolatlanishini asosiy sabablaridan biri - sud hokimiyatiga boshqa hech qaysi organ vakolatiga taalluqli bo'lmagan huquq - odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilganligi bilan izohlanadi. Zero, mamlakatimiz hayotida, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlanishiga erishishda odil sudlovning ahamiyati beqiyosdir. Odil sudlov jamiyat hayotida, jamiyat a'zolarini huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirishda, insonlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sudyalarning muayyan ishni ko'rib chiqishda hech kimga hisobdor bo'lmashligi. Bu qoida sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, sudyaning ish yuritish jarayonida faqat qonunga va o'z vijdoniga amal qilishini anglatadi. Sudya qabul qilayotgan qarorlar uchun boshqa davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki jamoat birlashmalari oldida hisobot berishga majbur emas. Mazkur prinsip sud qarorlariga tashqi aralashuv, bosim yoki ta'sir o'tkazilishining oldini olishga xizmat qiladi hamda odil sudlovni xolis va adolatli amalga oshirish uchun muhim kafolat. Sudyaning daxlsizligi uning shaxsiga, uy-joyiga, xizmat xonasiga, transport vositalariga, hujjatlariga va aloqa vositalariga nisbatan noqonuniy ta'sir choralari qo'llash taqiqlanishini anglatadi. Sudyani jinoyat yoki ma'muriy javobgarlikka tortish, ushlab turish, hibsga olish yoxud tintuv o'tkazish

faqat qonunda belgilangan maxsus tartibda amalga oshirilishi mumkin. Bu norma sudyaning mustaqil faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday noqonuniy aralashuvlardan himoya qilishga qaratilgan. Bundan tashqari konstitutsiyamizda davlat sudyaning va uning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlashi ham mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qoida sudyaning xizmat faoliyati bilan bog'liq tahdidlar, bosimlar yoki tajovuzlardan himoyalanihini kafolatlaydi. Davlat sudyaga nisbatan zo'ravonlik, qo'rqitish yoki boshqa noqonuniy harakatlarning oldini olish uchun zarur choralarni ko'radi, shuningdek, uning yaqin qarindoshlarining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki daxlsizligini himoya qiladi. Bu kafolat sudyaning o'z vazifalarini qo'rquvsiz va xolis bajarishiga sharoit yaratib, sud hokimiyatining nufuzi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu o'rinda odil sudlov har qaysi davrlarda ham ulug'langanligini, qadrlanganligini hamda insonlar unga intilib yashaganliklarini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Xususan, rim faylasuflari "Pereat mundus et fiat justicia", ya'ni "mayli dunyo barbod bo'lsin, lekin odil sudlov qaror topsin" deb ta'kidlaganliklari bejiz emas (1). Rim faylasuf-larining mazkur mumtoz shiorlari bir qarashda mubolag'adan iborat bo'lsa-da, lekin ular odil sudlovga shu qadar yuqori baho beradilar.

Istiqlolning dastlabki yillarida Konstitutsiyada nazarda tutilgan sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan qator qonunlarimiz qabul qilindi. 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda 1997-yilda qabul qilingan Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslarini, "Sudlar to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari va Hukumat qarorlarini keltirish mumkin. Biroq mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda

tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda edi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichni boshlanishini hayotiy zaruratga aylantirdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatda sud organlarining nufuzini oshirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini va faqat qonunlarga asoslanib ish yuritishini ta'minlash mamlakatimiz Konstitutsiyasi va shu asosda qabul qilinayotgan qonunlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishdagi muhim shartlardan biridir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2023. -65-70-b
2. “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi” // “O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami”, 2017 yil 13 fevral, 6-son, 70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 38-son, 433-modda.
4. Sud va huquqni muhofa qiluvchi organlar darslik. Toshkent 2020.
5. Sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy asoslari.
https://constitution.uz/oz/pages/Sud_hokimiyati_mustaqilligi
Mamasiddiqov M.M.,
yu.f.d., professor